
TADBIRKORLARGA EKSPORTIGA QARAB MOLIVAVIY YORDAM BERILADI



O'zbekistondan eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash uchun tabaqalashtirilgan moliyaviy yordam ko'rsatish tartibi ishga tushiriladi. Bu haqda O'zbekiston Prezidentining joriy yilning 30 sentyabr kuni qabul qilingan "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida belgilandi.

Farmonga muvofiq eksportchi korxonalarini ochiq tanlov orqali saralab, ularni yetakchi eksportyorlarga aylantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Yangi O'zbekiston - raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturi amalga oshiriladi.

Dasturga kiritilgan eksportchi korxonalariga Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan eksportoldi va eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirishi uchun oxirgi 12 oydagi eksport hajmidan kelib chiqib quyidagi moliyaviy yordamlar ko'rsatiladi:

- eksport hajmi 1 million dollardan 5 million dollargacha bo'lganda - **1 million dollargacha;**
- eksport hajmi 5 million dollardan 10 million dollargacha bo'lganda - **2 million dollargacha;**
- eksport hajmi 10 million dollardan 15 million dollargacha bo'lganda - **3 million dollargacha;**
- eksport hajmi 15 million dollardan 20 million dollargacha bo'lganda - **4 million dollargacha;**
- eksport hajmi 20 million dollardan ortiq bo'lganda - **5 million dollargacha;**
- bitta xalqaro standartni joriy qilish va sertifikatni olishi uchun ularga **30 ming AQSh dollaridan** ko'p bo'lmagan miqdorda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-10-03 12:03:40